Mamatkulov Abdulxapiz Latipovich (Qo‘qon universiteti Andijon filiali professori, filologiya fanlari nomzodi)

“NUTQIY HUSHYORLIK” VA EVFEMIZM HODISALARINING O‘ZARO MUNOSABATI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada o‘zbek tilidagi “nutqiy hushyorlik” va evfemizm hodisalarining o‘zaro munosabati sotsiolingvistik hamda lingvopragmatik nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Nutqiy hushyorlikning muloqot jarayonida ijtimoiy guruhlar, shaxsning sha’ni, qadr-qimmati va manfaatlarini hurmat qilishga yo‘naltirilgan kommunikativ hodisa sifatidagi mohiyati ochib beriladi. Evfemizmlarning nutqiy hushyorlikni yuzaga chiqaruvchi asosiy, biroq yagona bo‘lmagan lisoniy vositalardan biri ekani asoslanadi. Shuningdek, metafora, maqol, ibora va boshqa obrazli ifodalar ham nutqiy hushyorlikni ta’minlashda muhim vosita bo‘lishi ko‘rsatiladi. Tadqiqot natijasida nutqiy hushyorlik evfemizmga nisbatan kengroq, ijtimoiy-kommunikativ mazmunga ega hodisa ekani aniqlanadi.*

Kalit so‘zlar: *til, jamiyat, madaniyat, muloqot, nutqiy hushyorlik, sotsiolingvistika, evfemizm, metafora, kommunikativ strategiya, nutq odobi.*

ВЗАИМОСВЯЗЬ ПОНЯТИЙ «РЕЧЕВАЯ ОСТОРОЖНОСТЬ» И ЭВФМЕИЗМ

Аннотация. *В статье рассматривается взаимосвязь понятий «речевая осторожность» и эвфемизм в узбекском языке с социолингвистической и лингвопрагматической точек зрения. Раскрывается сущность речевой осторожности как коммуникативного явления, направленного на уважение достоинства, чести и интересов различных социальных групп. Обосновывается положение о том, что эвфемизмы являются одним из основных, но не единственным языковым средством реализации речевой осторожности. Особое внимание уделяется роли метафор, пословиц, фразеологических единиц и других образных средств в процессе смягчения высказывания.*

Ключевые слова: *язык, общество, культура, коммуникация, речевая осторожность, социолингвистика, эвфемизм, метафора, коммуникативная стратегия, речевой этикет.*

THE INTERRELATIONSHIP BETWEEN “LINGUISTIC VIGILANCE” AND THE PHENOMENON OF EUPHEMISM

Annotation. *The article examines the relationship between “speech vigilance” and euphemism in the Uzbek language from sociolinguistic and linguapragmatic perspectives. Speech vigilance is viewed as a communicative phenomenon aimed at respecting the dignity, honour and interests of different social groups. The study demonstrates that euphemisms represent one of the major, but not the only, linguistic means of realizing speech vigilance. Metaphors, proverbs, phraseological units and other figurative expressions also contribute to the mitigation of potentially uncomfortable or discriminatory statements. The findings indicate that speech vigilance is a broader socio-communicative phenomenon than euphemism.*

Keywords: *language, society, culture, communication, speech vigilance, sociolinguistics, euphemism, metaphor, communicative strategy, speech etiquette.*

1. Kirish. Globallashuv jarayonining jadallashuvi natijasida inson sha’ni, qadr-qimmati, huquq va manfaatlarini himoya qilish masalasi umumjahon miqyosidagi muhim ijtimoiy-madaniy qadriyatlardan biriga aylanmoqda. Mazkur jarayon tilning ijtimoiy hodisa sifatidagi faoliyatida ham yaqqol namoyon bo‘ladi.

Til faqatgina fikrni ifodalash vositasi emas, balki jamiyatda yuz berayotgan siyosiy, ijtimoiy, madaniy va axloqiy o‘zgarishlarni aks ettiruvchi murakkab tizimdir. Jamiyat taraqqiyoti bilan birga muloqot me’yorlari, nutq odobi va insonlarga munosabat shakllari ham takomillashib boradi. Shu jihatdan, “nutqiy hushyorlik” hodisasini sotsiolingvistik va lingvopragmatik nuqtayi nazardan o‘rganish dolzarb masalalardan biridir.

Til, jamiyat va madaniyat o‘rtasidagi uzviy munosabat tilshunoslikda uzoq yillardan buyon tadqiq etib kelinmoqda. Til xalqning dunyoqarashi, milliy mentaliteti, turmush tarzi, urf-odatlari, axloqiy me’yorlari va qadriyatlarini o‘zida aks ettiradi. Shu sababli jamiyatda shakllangan muloqot madaniyati va ijtimoiy munosabatlar tilda turli lisoniy birliklar orqali namoyon bo‘ladi.

2. Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. “Nutqiy hushyorlik” tushunchasi muloqot jarayonida ayrim ijtimoiy, etnik, jinsiy, jismoniy yoki boshqa guruh vakillarini kamsitmaslik, ularning sha’ni va qadr-qimmatiga putur yetkazmaslik, noqulay yoki keskin ifodalarni yumshatish hamda kommunikativ vaziyatga mos til vositalarini ongli ravishda tanlashni anglatadi.

Mazkur tadqiqotning maqsadi o‘zbek tilidagi nutqiy hushyorlik va evfemizm hodisalarining mazmuniy, funksional hamda kommunikativ jihatdan o‘zaro munosabatini aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- nutqiy hushyorlikning sotsiolingvistik mohiyatini ochib berish;
- evfemizmning nutqiy hushyorlikni yuzaga chiqarishdagi rolini aniqlash;
- nutqiy hushyorlik va evfemizm tushunchalarining umumiy va farqli jihatlarini ko‘rsatish;
- metafora, maqol, ibora va boshqa lisoniy vositalarning ushbu jarayondagi ishtirokini tahlil qilish;
- o‘zbek tilidagi amaliy misollar asosida nutqiy hushyorlikning kommunikativ xususiyatlarini yoritish.

3. Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda tavsifiy, qiyosiy, kontekstual, lingvopragmatik va sotsiolingvistik tahlil metodlaridan foydalanildi. Tahlil materiali sifatida o‘zbek tilidagi evfemik birliklar, metaforik ifodalar, maqollar, iboralar hamda ijtimoiy muloqotda qo‘llanadigan yumshatuvchi til vositalari olindi.

Tadqiqot jarayonida nutqiy hushyorlik quyidagi omillar bilan bog‘liq holda o‘rganildi:

1. Nutq egasining madaniy, kasbiy va ijtimoiy guruhga mansublik.
2. Nutq egasining bajaradigan ijtimoiy vazifasi.
3. Nutq egasining gap predmetiga munosabati.
4. Muloqotning sharoiti, vaziyati va kommunikativ maqsadi.

Nutqiy hushyorlikning yuzaga kelishida so‘zlovchining shaxsiy tajribasi, madaniy saviyasi, suhbatdoshning ijtimoiy maqomi, nutq mavzusi va muloqot muhiti muhim omil sifatida qaraldi.

4. Tahlil va natijalar. 3.1. Nutqiy hushyorlikning sotsiolingvistik mohiyati. Nutqiy hushyorlik oddiy til kategoriyasi emas, balki muayyan ijtimoiy va kommunikativ vaziyatda til vositalarini ongli ravishda tanlashga asoslangan murakkab hodisadir. U nutq egasining madaniyati, savodxonligi, ijtimoiy faolligi, bag‘rikengligi va boshqa insonlarga hurmat bilan munosabatda bo‘lishini ko‘rsatadi.

Nutq uslubi, ko‘pincha, shaxsning ma’lum ijtimoiy muhitga mansubligini bildiruvchi belgi vazifasini bajaradi. Masalan, rasmiy shaxs, jurnalist, olim yoki oddiy suhbatdoshning bir voqea-hodisani ifodalash uslubi ularning ijtimoiy roli va kommunikativ vazifasiga qarab farqlanadi.

Biroq muayyan uslubiy belgi shaxsning doimiy ijtimoiy maqomini emas, balki uning ayni muloqot jarayonidagi holatini bildiradi. Bir shaxs do‘stona muhitda erkin, norasmiy so‘zlardan foydalansa, rasmiy yig‘ilishda xolis, ehtiyotkor va me’yoriy ifodalarni tanlaydi.

Demak, nutqiy hushyorlik quyidagi jihatlarni o‘z ichiga oladi:

- muloqot vaziyatini hisobga olish;
- suhbatdoshning ijtimoiy maqomini hurmat qilish;
- noqulay yoki kamsituvchi ifodalardan qochish;
- axborotni yumshoq va maqbul shaklda yetkazish;
- kommunikativ maqsadga mos til vositalarini tanlash.

3.2. Evfemizmning nutqiy hushyorlikni yuzaga chiqarishdagi o‘rni. Evfemizm – axloqiy, madaniy, diniy yoki ijtimoiy sabablarga ko‘ra qo‘llanishi noqulay, keskin yoki taqiqlangan deb hisoblangan so‘z va iboralar o‘rnida ishlatiladigan yumshoqroq til birliklaridir.

Masalan:

- *o‘ldi – olamdan o‘tdi*;
- *o‘lgan – marhum, rahmatli*;
- *xotin – rafiqa, umr yo‘ldosh*;
- *kal – siyqabosh*;
- *chechak – gul*.

Evfemizmlarning bir qismi tabu hodisasi bilan bog‘liq. Tabu – jamiyatda muayyan diniy, axloqiy, madaniy yoki ijtimoiy sabablarga ko‘ra, qo‘llanishi ma’qullanmaydigan so‘z va iboralardir. Bunday birliklar o‘rnida evfemizmlarning ishlatilishi muloqot ishtirokchilarining ruhiy holatini hisobga olish va nutqning ta’sirchanligini yumshatishga xizmat qiladi.

Evfemizmlar quyidagi mazmuniy guruhlarga ajratilishi mumkin:

- oila qurish bilan bog‘liq birliklar;
- axloqsizlik bilan bog‘liq birliklar;
- jinsiy munosabatlarni ifodalovchi birliklar;
- murojaat shakllari;
- jinsiy va jismoniy nuqsonlarni ifodalovchi birliklar;
- kasallik nomlari;
- ovqatlanish va fiziologik jarayonlar bilan bog‘liq birliklar;

• siyosiy tushunchalar;
• o‘lim bilan bog‘liq birliklar;
• urf-odat va an’analar bilan bog‘liq birliklar.

Evfemizmlar jamiyat taraqqiyoti bilan birga o‘zgarib boradi. Ijtimoiy munosabatlar, axloqiy qarashlar va madaniy me’yorlarning yangilanishi natijasida ayrim evfemizmlar faol qo‘llanila boshlaydi, ayrimlari esa eskiradi.

3.3. Evfemizmning lingvokulturologik va sotsiolingvistik xususiyatlari. Evfemizmlar faqat bir so‘zning o‘rnini ikkinchi so‘z bilan almashtirishdan iborat emas. Ular xalqning:

• madaniy dunyoqarashini;
• milliy mentalitetini;
• axloqiy qadriyatlarini;
• gender munosabatlarini;
• kommunikativ odobini;
• ijtimoiy tafakkurini aks ettiruvchi lingvokulturologik hodisa hamdir.

Evfemik mazmun leksik birliklar bilan bir qatorda, maqollar, iboralar, metaforalar va obrazli ifodalar orqali ham yuzaga chiqadi. Masalan, o‘zbek tilida *o‘ldi* leksemasi o‘rnida *joni uzildi*, *uzildi*, *xazon bo‘ldi* kabi metaforik ifodalar qo‘llanishi mumkin. Bunday birliklar bevosita va keskin ifodani yumshatib, nutqning estetik hamda emotsional ta’sirini oshiradi.

Maqollar evfemik mazmunni ifodalashda alohida o‘rin tutadi. Ular nafaqat obrazlilik va ta’sirchanlikni ta’minlaydi, balki muloqot jarayonida shaxs omilini, suhbatdoshning mavqei va ruhiy holatini hisobga olish imkonini beradi.

3.4. Nutqiy hushyorlik va evfemizmning farqli jihatlari. Nutqiy hushyorlik va evfemizm bir-biriga yaqin hodisalar bo‘lsa-da, ular aynan bir xil tushuncha emas.

Ularning farqi quyidagicha izohlanadi:

Mezoni	Nutqiy hushyorlik	Evfemizm
Mohiyati	Keng ijtimoiy-kommunikativ hodisa	Muayyan lisoniy vosita
Amalga oshish sohasi	Nutqning barcha uslublari va vaziyatlari	Asosan, noqulay yoki taqiqlangan birlik-lar o‘rnida
Asosiy vazifasi	Hurmat, bag‘rikenglik va kommunikativ moslikni ta’minlash	Keskin yoki noqulay ma’noni yumshatish
Vositalari	Evfemizm, metafora, maqol, ibora, sintaktik tuzilma va boshqalar	Asosan, leksik va frazeologik almashtirish
Kommunikativ ko‘lami	Keng	Nisbatan tor

Shunday qilib, nutqiy hushyorlikni mohiyat, evfemizmni esa ana shu mohiyatni yuzaga chiqaruvchi vositalardan biri sifatida baholash mumkin.

Masalan, quyidagi ifodalar nutqiy hushyorlikning ijtimoiy hayotdagi ko‘rinishlari hisoblanadi:

• *kambag‘al – kam ta’minlangan;*
• *temir daftar – ijtimoiy himoyaga muhtoj oila;*
• *nogiron – imkoniyati cheklangan shaxs;*
• *yetimxona – mehribonlik uyi.*

Bu birliklar jamiyatda shaxsni kamsitmaslik, uning qadr-qimmatini saqlash va ijtimoiy jihatdan maqbul ifodalarni tanlashga xizmat qiladi.

3.5. Nutqiy hushyorlikni ta’minlovchi boshqa vositalar. Nutqiy hushyorlik faqat evfemizmlar orqali emas, balki boshqa lisoniy vositalar yordamida ham amalga oshadi. Jumladan:

• metaforik ifodalar;
• maqollar;
• frazeologik birliklar;
• sintaktik jihatdan yoyiq tuzilmalar;
• ilmiy terminlar;
• xorijiy o‘zlashmalar;
• qisqartmalar;
• bilvosita va kontekstual ifodalar.

Bu vositalar yordamida so‘zlovchi axborotni bevosita, keskin yoki qo‘pol shaklda emas, balki ijtimoiy jihatdan maqbul va suhbatdosh uchun qulay shaklda yetkazadi. Shu nuqtayi nazardan, nutqiy hushyorlikni muayyan kommunikativ strategiya sifatida baholash mumkin. U kommunikativ maqsad, vaziyat, suhbatdoshning mavqeyi va nutq predmetiga munosabat asosida shakllanadi.

5. Xulosa va takliflar. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, nutqiy hushyorlik o‘zbek tilidagi keng qamrovli ijtimoiy-kommunikativ hodisa bo‘lib, inson sha’ni, qadr-qimmati, ijtimoiy mavqeyi va ruhiy holatini hurmat qilishga xizmat qiladi.

Evfemizmlar esa nutqiy hushyorlikni amalga oshiruvchi muhim lisoniy vositalardan biri hisoblanadi. Ular noqulay, keskin, taqiqlangan yoki kamsituvchi ifodalar o‘rnida qo‘llanib, muloqotning yumshoq, madaniy va ijtimoiy jihatdan maqbul bo‘lishini ta’minlaydi.

Biroq nutqiy hushyorlik evfemizmga nisbatan kengroq tushunchadir. Chunki u faqat so‘z almashtirish bilan cheklanmay, metafora, maqol, ibora, sintaktik tuzilma, kommunikativ strategiya va muloqot vaziyatini hisobga olish kabi ko‘plab omillarni ham qamrab oladi.

Demak, nutqiy hushyorlikni nutq odobi, bag‘rikenglik, ijtimoiy mas’uliyat va kommunikativ madaniyatning muhim ko‘rinishi sifatida baholash mumkin. Evfemizm esa ushbu hodisaning til tizimidagi aniq va faol namoyon bo‘lish shakllaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Isroilova H., Mo‘ydinov Q. Abdulla Qahhor asarlarida gender tafovutlar: evfemizm va disfemizmning qo‘llanishi. “Lisoniy meros va tilshunoslik taraqqiyoti” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Andijon, 2023. – B. 88.

(2). Irisqulov T. Tilshunoslikka kirish. Toshkent, 2001.

(3). Jo‘rayeva N. Fransuz va o‘zbek tillari evfemizm va disfemizmlarining lingvopragmatik xususiyatlari. Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati, Andijon, 2023.

(4). Omonturdiyev A. O‘zbek nutqining evfemik asoslari. Toshkent, 2000.

(5). Содиқов А. ва бошқ. Тилшуносликка кириш. Тошкент, “Ўқитувчи”, 1981.

(6). Қаландаров Ш. Ўзбек лингвомаданий муҳитида мақоллар эвфемизацияси. Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати, Фарғона, 2023.

(7). Qodirov X. O‘zbek tilida evfemizm va disfemizm. Toshkent, “Yangi asr avlodi”, 2013.